

Jizzax viloyati adliya boshqarmasi (adliya bo'limlari bilan birga) tomonidan 2023 yilning 6 oyida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish yuzasidan ma'lumot.

19.07.2023 yil

Jizzax shahri


O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunini 35-moddasida murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilish belgilangan.

Shunga ko'ra, Jizzax viloyati adliya boshqarmasi va uning tizimiga 2023 yilning 6 oyida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar tahlil qilindi. Tahlil statistik hisobot shakllariga asosan o'tkazildi. **Jumladan:**

1. Sohalar kesimida;

Ushbu davrda **jami 3454 ta** (401 tasi ijtimoiy-iqtisodiy sohada huquqni qo'llash amaliyotiga oid, 2245 tasi inson huquqlarini himoya qilishga oid, 110 tasi notariat va advokatura faoliyatiga oid, 15 tasi yuridik xizmatlar faoliyatiga oid, 75 tasi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga oid, 327 tasi davlat xizmatlarini ko'rsatishga oid hamda 281 ta boshqa sohalarda)

ariza va shikoyatlar kelib tushgan.




2. Ko'rib chiqilishi bo'yicha;

Yil boshidagi **110 ta** qoldiq va kelib tushgan **3454 ta** murojaatlardan **3172 tasi (91,8 %)** ko'rib chiqilib, **2082 tasi (65,6%)** qanoatlantirilgan, **18 tasi** rad etilgan, **1072 tasiga** huquqiy tushuntirish berilgan.

Kelib tushgan murojaatlardan **105 tasi** adliya bo'limlariga (boshqarmadan), **142 tasi** boshqa tashkilotlarga taalluqligi bo'yicha yuborilgan, **22 tasi** ko'rmasdan qoldirilgan, **123 tasi** hisobot davrida qoldiq bo'lib o'tgan.

Murojaatlarning sohalar kesimida qanoatlantirish darajasi bo'yicha:



3. Murojaatlarni shakli, turi hamda ko'rib chiqish mexanizmi bo'yicha;

Murojaatlar shakli bo'yicha tahlil qilinganda **1185** tasi og'zaki, shundan **611** tasi sayyor qabullarda, **1437** tasi yozma, **832** tasi elektron shaklda kelib tushgan murojaatlarni tashkil qiladi.

Shuningdek, murojaatlarning **2127** tasi shikoyat, **1327** tasi arizalarni tashkil etadi.

Kelib tushgan murojaatlarni **450** ga yaqini joyiga chiqqan holda, **300** tasini ko'rib chiqishda mutaxassislar jalb qilingan holda, **1000** ga yaqini bevosita murojaat etgan fuqarolar ishtirokida ko'rib chiqilgan.

4. Murojaatlarning xususiyati bo'yicha;

739 tasi mehnat nizolari, shundan, **475** tasi oylik ish haqini olish masalasida, **98** tasi ta'limga, **156** tasi ijtimoiy himoyaga, **103** tasi uy-joyga, **70** tasi kommunal to'lovlarga, **36** tasi soliq sohasiga, **66** tasi yerga, **35** tasi banklar faoliyatiga, **68** tasi notariatga, **22** tasi advokaturaga, **135** tasi davlat xizmatlarini ko'rsatishga, **11** tasi nodavlat notijorat va diniy tashkilotlar faoliyatiga doir qonun hujjatlari yuzasidan, yuridik xizmatga doir **2** ta, **7** tasi sud qarorlari yuzasidan, **1** tasi prokuratura organlari faoliyatiga oid, **2** tasi ichki ishlar organlari faoliyatiga doir, **36** tasi adliya organi xodimlari xatti-harakatlari yuzasidan, **559** tasi qonun hujjatlariga tushuntirish berishga oid hamda **1308** tasi boshqa masalalar oid murojaatlar.

5. Murojaatlarda tez-tez ko'tarilgan masalalar, aniqlangan kamchiliklar va qoida buzarlilar, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, shuningdek jamiyat va davlat manfaatlari buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishga qaratilgan choralar bo'yicha;

Murojaatlarni ko'rib chiqish natijasida aniqlangan qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish qilish, fuqaro va yuridik shaxslarni buzilgan huquqlarni tiklash yuzasidan tegishli idoralarga jami, **653** ta ta'sir choralari kiritildi.

Xususan, **268** ta taqdimnoma, **8** ta ogohnoma, sudlarga **278** ta da'vo arizalari (ariza), **92** ta ma'muriy va **7** ta jinoiy takliflar kiritildi.

Kiritilgan ta'sir choralariga asosan **60** nafar shaxslar intizomiy, **70** nafar shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortildi hamda **25** ta hujjatlar bekor qilindi, **26 079 971 200** so'm pul mablag'lari undirildi.

5.1. Murojaatlarda tez-tez ko'tarilgan masalalar tahlil qilinganda mehnat nizolari, shu jumladan, oylik ish haqini olish, ta'lim, ijtimoiy, yerga oid hamda davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasiga oid murojaatlar ko'pligi aniqlanib, ushbu yo'nalishlar yuzasidan tegishli tashkilot va idoralar o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish belgilab olindi.

Ma'lumot tariqasida 2022 yilning sentabr oyidan to joriy yilning o'tgan davrida viloyatdagi 12 ta idora va uning qo'yi tizimi xodimlariga murojaatlar bilan ishlash bo'yicha seminarlar o'tkazildi.

Bugungi kunda bu boradagi ishlar hokimliklarning mas'ul xodimlariga seminar o'tkazilishi davom etmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib, kelgusida murojaatlar bilan ishlash sohasida qo'yidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- kelgusida shikoyatlar ko'paygan sohalarni ish rejalarga kiritish yoki monitoring asosida o'rganishni tashkil qilish;

- qaysi tashkilot xodimlari xatti harakatlariga nisbatan ko'proq shikoyatlar kelib tushgan bo'lsa, mazkur tashkilotlarda huquqiy targ'ibot tadbirlari o'tkazish yoki uning yuqori turuvchisiga taqdimnoma, ogohnoma kiritish yoki taklif va tavsiyalar yuborish.

- boshqarma bo'limlari va sohalar bo'yicha ma'sullar har chorakda shikoyatlar ko'paygan sohalarni o'rganib, sabablarini tahlil qilib, muammolarni bartaraf etish yuzasidan rahbariyatga va yuqori turuvchi idoralarga tegishli takliflar kiritish;

**Rejalashtirish va
nazorat-tahlil sho'basi**

19.07.2023 yil